

## Ajdodlar yodi - avlodlar ko'ngil shodi

Talabalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularni sportga va sog'lom turmush tarziga targ'ib qilish shuningdek, buyuk sohibqiron Amir Temur bobomizning 682 yilligi munosabati bilan, "Qishloq va suv xo'jaligini elektrlashtirish va avtomatlashtirish" fakultetida sportning futbol turidan fakultet birinchiligi musobaqasi bo'lib o'tdi. Ushbu musobaqada, fakultetda mavjud akademik guruhlardan 25 ga yaqin jamoalar ishtirok etishdi.

Musobaqa juda qiziqarli va murosasiz esda qolarli vaziyatlarga boy bo'ldi. Ushbu musobaqada barcha jamoalar o'zlarining bor mahoratlari namoyon etib "KUCH BIRLIKDA" ekanligi bir jamoa birlashib harakat qilinsa, yuqori marralarni egallah mumkinligini amalda isbot qilishdi. Yakunda barcha raqiblarini yengib g'oliblikni va fakultetning 2018-yilgi "KO'CHMA KUBOG"ini 3-bosqich 5-guruh jamoasi qo'lga kiritdi. Faxrli 2-o'rinni 4-bosqich 7-guruh jamoasi qo'lga kiritgan bo'lsa, 3-o'rinni sohiblari 2-bosqich 2-A guruh jamoasiga nasib etdi.

Ushbu g'alabalar bilan barcha jamoalarni chin yurakdan muborakkod etib qolamiz, o'qish va keyingi faoliyatlarida ulkan zafarlar tilab qolamiz. Shu o'rinda musobaqani tashkil etishdagi jonbozliklari hamda yaqindan yordam bergenliklari uchun "Jismoniy madaniyat va sport" kafedrasini mudiri Muhiddin Norqobilov va kafedra o'qituvchisi Vohidjon Mahmudovlarga o'z minnatdorchilikimizni bildiramiz.



**QSSEA fakulteti yoshlar ittifoqi yetakchisi Zahiriddin Xolmatov axboroti,  
Institut matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov.**